

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Raximjonova Rayxona Shuxtar qizi

KIUT Namangan filiali

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-boshqich talabasi

Telefon raqami: +99894 274-18-24

E-mail: rayhonarahimjanova0410@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirishga doir ilmiy-pedagogik yondashuvlar, nazariy asoslar, innovatsion metodlar va amaliy texnologiyalar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Dunyo tajribasi, xorijiy adabiyotlar hamda milliy pedagogika merosi asosida kreativlikni shakllantiruvchi mexanizmlar o'rganiladi. Sensor didaktik o'yinlar, kreativitga asoslangan interfaol metodlar, divergent fikrlashni rag'batlantirish usullari, tasavvur faoliyatini rivojlantirish bosqichlari keng yoritiladi. Shuningdek, mavjud ilmiy manbalarda aniqlangan muammolar va tadqiqot bo'shliqlari ko'rsatilib, zamonaviy ta'lim talablari asosida taklif va xulosalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: kreativ salohiyat, divergent tafakkur, ijodkorlik, innovatsion metodlar, sensor didaktik o'yinlar, tasavvur faoliyati, kreativ pedagogika, kreativ kompetensiya.

Kirish

Kreativlik tushunchasining nazariy asoslarini, uning psixologik-pedagogik mohiyatini ilmiy manbalar asosida chuqur tahlil qilish bu - adabiyotlarda mavjud bo'lgan chalkashliklarni bartaraf etishga xizmat qilishidir. Chunki ko'plab manbalarda kreativlik faqat "ijodkorlik" yoki "erkin fikrlash" bilan tenglashtiriladi. Aslida esa kreativlik — divergent tafakkur, moslashuvchanlik, originallik, muammoni noodatiy yecha olish, tasavvur kengligi kabi ko'p komponentli psixologik jarayondir. Bu vazifa kreativlikni tor doirada emas, balki o'quvchilarning shaxsiy va kognitiv rivojlanishi bilan bog'lab keng talqin qilish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf davri o'quvchilarning intellektual, emotsional va ijodiy salohiyati shakllanadigan eng muhim bosqichlardan biridir. Psixologiya fanida **L. S. Vygotskiy** tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, bolalikning 7–10 yosh oralig'i insonning "ijodiy tasavvur va fantaziya faoliyati eng faol shakllanadigan forsajt davri" hisoblanadi. Aynan shu davrda bola mantiqiy hamda divergent fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradi. **J.Gilford** va **E.Torrance** tomonidan ishlab chiqilgan kreativlik nazariyalari ham o'quvchida originallik, moslashuvchanlik, ravonlik, tafsilotchilik

kabi ijodiy fikrlash komponentlari shakllanishi boshlang‘ich ta‘lim davomida eng faol namoyon bo‘lishini ta‘kidlaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida ta‘lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri — o‘quvchilarda kreativ fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, noodatiy yechim topish, vaziyatga mos yangicha yondashishni shakllantirishdir. Kreativlikni erta yoshdan rivojlantirish esa shaxsning keyingi intellektual, ijtimoiy, kommunikativ va kasbiy muvaffaqiyatlari uchun zamin yaratadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf — kreativ tafakkur shakllanishining eng sezgir bosqichi hisoblanadi.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta‘limdagi bu boradagi mas‘uliyatni quyidagicha ta‘kidlaydi: *“Farzandlarimizning fikrlash doirasini kengaytirish, ularda ijodkorlikni, tashabbuskorlikni kuchaytirish — yangi jamiyat qurilishining bosh mezonidir.”* (Bu fikr “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” nutqlaridan olingan, 2022-yil, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy portalidagi ma‘lumotlar asosida.) Bu chaqiriq, avvalo, boshlang‘ich ta‘limga qo‘yilgan ulkan vazifadir. Chunki kreativlikning asosi aynan shu davrda shakllanadi. Shu bois ushbu maqolada kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik, pedagogik, metodik asoslari izchil yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili shularni ko‘rsatadiki kreativlik bo‘yicha ilmiy izlanishlar XX asrning o‘rtalaridan boshlab faol olib borila boshlagan. J. Gilford, E. Torrens, F. Barron, R. Sternberglarning ishlari kreativ tafakkurning psixologik tabiatini chuqur tadqiq etadi. Ularning ta‘kidlashicha, kreativlik — bu shunchaki iste‘dod emas, balki o‘rgatiladigan, rivojlantiriladigan ko‘nikmalar majmui.

O‘zbek pedogogikasida A. Avloniy, H. Hodiyev, N. Sayidahmedov, M. Ochilovlar boshlang‘ich ta‘limda bola tafakkurini o‘stirishning metodologik asoslarini belgilab bergan. Ularning qarashlarida ijodiy faoliyatning o‘yin, tajriba, kuzatish va amaliy mashqlar orqali shakllanishi alohida ta‘kidlangan.

XXI asr adabiyotlari (G. Gardner – *“Multiple Intelligence Theory”*, K. Robinson – *“Creative School”*, D. Levitt – *“Innovative thinking in early schooling”*) ta‘limning eng asosiy vazifasi sifatida o‘quvchini ijodiy fikrlashga o‘rgatish zarurligini ko‘rsatadi. Ularning tadqiqotlarida kreativ muhit, muammoli vaziyatlar, sensor faoliyat va muloqotning kreativlikka ta‘siri chuqur ochib berilgan.

Mavjud ilmiy bazani tahlil qilish natijasida muammolar ham aniqlandi:

- Xorij adabiyotlarida kreativlik chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, boshlang‘ich sinfga mos sensor didaktik o‘yinlar tizimi yetarli ishlab chiqilmagan.
- Milliy manbalarda ijodiy tafakkur haqida fikrlar bor, ammo kreativ kompetensiya modeli to‘liq shakllantirilmagan.
- Amaliy metodlar ko‘p, ammo ularning bosqichma-bosqich samaradorligi bo‘yicha ilmiy tajribalar kam.
- Ko‘plab tadqiqotlarda kreativlik iqtidor bilan tenglashtiriladi, lekin oddiy o‘quvchilarda ham kreativlikni shakllantirish mexanizmlari yetarlicha yoritilmagan.

Demak, mavzu bo'yicha hali to'la ishlab chiqilmagan ilmiy bo'shliqlar mavjud va aynan shu bo'shliqni to'ldirish ushbu maqolaga asos bo'lishiga harakat qilinadi.

Adabiyotlar tahlili asosida ko'rinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy qarashlar ko'proq umumiy metodik tavsiyalar bilan chegaralangan, bu bosqichga xos yosh psixologiyasi, tafakkur xususiyatlari va o'yin orqali o'qitish texnologiyalarining integratsiyalashgan modeli yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, samarali metodlar va o'yin texnologiyalari majmuini ilmiy asoslash hamda ularning amaliy qo'llash mexanizmini yoritishdan iboratdir. Mazkur maqsad kreativlikning zamonaviy talqinlari (Guilford, Torrance, Vygotskiy, Rubinshteyn) hamda O'zbekiston ta'lim tizimida ilgari surilgan kompetensiyaviy yondashuv talablari bilan uyg'unlashtirilgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Shu sababli tadqiqotning maqsadi o'quvchilarning kreativ tafakkurini faollashtirishga qaratilgan pedagogik muhitni yaratish, o'qituvchining metodik tayyorgarligini oshirish va ta'lim jarayoniga kreativ o'yin texnologiyalarini integratsiya qilishdan iborat sifatida kengaytiriladi.

Metodlar

Boshlang'ich yoshdagi o'quvchilar tasavvurining faol, cheklanmagan, erkin bo'lishi kreativlik rivojlanishiga asos yaratadi. J. Piage ta'kidlaganidek, 6–10 yosh oralig'ida bola *“konkret operatsiyalar bosqichida”* bo'lib, unda obrazli fikrlash kuchli rivojlanadi. Bu davr:

- fantaziya faol,
- yangi obrazlar tez yaratiladi,
- tasavvur vizual shaklda rivojlanadi,
- noodatiy yechimlar topishga moyillik ortadi.

Shu bois aynan shu yosh kreativlikni shakllantirish uchun eng sezgir palladir.

Boshlang'ich sinfda kreativlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari ta'limda kreativlikni rivojlantirishning markaziy sharti — o'quvchini fikrlashga undaydigan muhitni yaratishdir. Bunga:

- erkin fikr almashish,
- tanqidiy fikrlashni qo'llab-quvvatlash,
- fantaziya va tasavvurga imkon berish,
- ijodiy vazifalar berish,
- rag'batlantirish tizimi kiradi.

Pedagogning nutqi, dars tashkil etish uslubi, o'yinlarni tanlash madaniyati kreativlikka kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Kreativlikni rivojlantirishda sensor didaktik o‘yinlarning o‘rni (rang, shakl, tovush, hajm, hid, faktura bilan bog‘liq o‘yinlar) o‘quvchining:

- sezgi organlarini,
- idrok,
- obrazli tafakkur,
- qiyoslash,
- tasavvur,
- tasvirlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Sensor o‘yinlarning afzalligi shundaki, ular bola ongida obrazlar galereyasini boyitadi, bu esa fikrlarning kreativ shaklda tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

Sensor o‘yinlarga misollar:

- “*Sehrli qopcha*” (predmetni ushlab topish).
- “*Ranglar simfoniyasi*” (ranglar asosida obraz yaratish).
- “*Tovushdan qahramon yarat*” (tovushga mos syujet to‘qish).
- “*Shakllar metamorfizi*” (geometrik figuralardan noodatiy obraz yaratish).

Har bir o‘yin – kreativ tafakkur uchun mini-laboratoriya sifatida ishlaydi.

Divergent fikrlashni rivojlantirish metodi

Bu metod orqali o‘quvchilar bir savolga bir nechta noodatiy, ijodiy javoblar topishni o‘rganadilar. Ularning standartdan tashqarida fikrlash qobiliyati rivojlanadi

Masalan:

“Qalam nimaga kerak?” — odatiy javobdan tashqari 20 ta kreativ javob topish: antena, pult, tayoqcha, mikrofon, o‘lchagich... Shaxsan o‘zim *Creative Pedagogy* fanida (o‘qituvchimiz Jumanazarova Gullola) doira shaklida nimalar hosil qilish mumkinligi haqida sinov usulida savol so‘rganlarida, shaxsiy rekordim 61 ta mavjud va yaratish mumkin bo‘lgan buyumlarni topganman.

Kreativ yozuv - bola tasavvurini keng ochib beradigan ijodiy matnlar, yakunlanmagan hikoyalar, obrazli tasvirlar orqali o‘quvchi fantaziya dunyosiga kiradi. Muammoli vaziyat yaratish metodi o‘quvchilarga qiyin, noodatiy, tayyor yechimi bo‘lmagan vaziyatlar beriladi. Bunda bola mustaqil fikrlaydi, izlanadi, faraz qiladi. Bizga *Pedagogical Conflicology* (o‘qituvchimiz Jurayeva Mushtariy) fani o‘rgatilgan, bunda pedagagik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoki mavjud muammolarga kreativ tarzda yechim toppish va oldini olish ilmi o‘rgatilgan. Bizning emotsiyalarga boy bo‘lgan o‘qituvchimiz fanga doir va keng qamrovli muammoli)vaziyatlar berar edilar biz esa ularga noodatiy ro‘lli o‘yinlar, ijodiy fikrlashlar orqali javob berar edik.

Dramatizatsiya metodi - rollarga bo‘lib o‘ynash orqali o‘quvchi yangi obrazlar yaratadi, hissiy tajriba orttiradi, sahnalashtirish orqali kreativ harakatlar bajaradi. *Native Language and Teaching Methodology2* fanimizda (o‘qituvchimiz Xayrullayeva Nigora) o‘zbek xalq ertagi “Zumrad va Qimmat” ertagini qo‘g‘irchoqli

sahnalashtirganmiz, ertakni so'ngini, Qimmat bilan ham baxtli yakun toptirish bilan yakunlaganmiz.

Fantaziya mashqlari - "Qanotli kitob", "Gapiradigan daraxt", "Bulutlar hikoyasi", "Kelajak maktabi" kabi mashqlar o'quvchini cheksiz obraz yaratishga undaydi. *Methods of Natural Sciences and their Teaching* faniga ham (o'qituvchimiz Isroilova Navruza) kreativlik bilan integratsiya hosil qilish zarur ekanini angladim, shaxsan men shu fandan keyin Ekalogik kreativ praxektlar juda zarur ekanini va shu yuzasidan maktab o'quvchilari uchun yartilishi mumkin bo'lgan mini loyiha g'oyasini shakillantirdim va albatta ijodiy yondashuvimdan foydalanib buni ustida ishlayman.

STEAM yondashuvi - Science + Technology + Engineering + Art + Math integratsiyasi kreativlikni faol rivojlantiradi. *Elementary English Teaching methods va Basic Theory of Primary English* fanlarida (o'qituvchilar Nabiyeov Sherzodbek va Dadabayeva Lazokatxon) ushbu fan o'qituvchilarimiz orqali STEAM ta'lim turini amalda qo'llash ko'mikmalariga ega boldim, chunki tilni o'rgatish jarayonida yuqorida fanlar va ularga yondosh bo'lgan fanlarni ham kreativ integratsiyash orqali fanni onson o'lashtirganman.

Natijalar shuni ko'rsatadiki o'quv jarayonida kreativ yondashuvlar qo'llanganda, bolalarning fikrlashi va tasavvuri ancha faollashgani kuzatildi. O'quvchilar savollarga noodatiy javoblar topishga harakat qila boshladi, matnlar yaratishda erkinroq fikr bildirdi va o'z g'oyalarini dadil ayta oldi. Darsdagi ijodiy mashg'ulotlar ularda qiziqish, faollik va ishonchni oshirdi. Jamoada ishlash, muammoga yechim izlash va vaziyatni boshqa tomondan ko'ra bilish kabi ko'nikmalar ham sezilarli rivojlandi. Umuman olganda, kreativ metodlar bolalarning o'qituvchilarni ham o'qishga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirdi, ularni faol, o'ylaydigan va tasavvuri keng bo'lgan o'quvchilarga va o'qituvchilarga aylantira oldi.

Xulosa

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida shuni angladikki, kreativ fikrlashni rivojlantirish – bu faqat metod emas, balki bolaga o'zini erkin his qilish imkonini beradigan butun boshli jarayondir. "Qalam nimaga kerak?" kabi oddiy savolning o'zi o'quvchilarni cheksiz tasavvur olamiga olib kiradi. Muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, kreativ yozuv, fantaziya mashqlari yoki STEAM yondashuvi — bularning barchasi bolani fikrlashga, izlanishga va o'ziga ishonishga undaydi. Darslarda men ko'rgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, yaratishga imkon berilgan o'quvchi yanada faol, quvnoq va tashabbuskor bo'ladi. Ertakni o'zgacha yakunlash, noodatiy rollarni ijro etish yoki ekologik loyiha yaratish — bularning har biri kichik yoshdagi bolalarda ijodkorlik urug'larini unib chiqaradi. Demak, kreativlikni rivojlantirish boshlang'ich ta'limni jonlantiradi, har bir bola ichidagi yulduzni porlatadi va ta'lim jarayonini hayotiy, qiziqarli va mazmunli qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: «Fan va texnologiya».
2. G'afforov Q., Ochilov E. Umumiy pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Mamarasulov Q. Didaktika asoslari. – Toshkent: «O'qituvchi», 2019.
4. Zunnunov A. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2020.
5. Xudoyberdiyev A., Raximov G'. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. – Toshkent: 2020.
6. Xodjiev D.K. Pedagogikada innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish vazirligi, 2021.
7. Torrance, E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Princeton: Scholastic Testing Service.
8. Guilford, J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill.
9. Robinson, K. Out of Our Minds: The Power of Creative Thinking. – Wiley.
10. Sawyer, R.K. Explaining Creativity. – Oxford University Press.
11. Runco, M.A. Creativity: Theories and Themes. – Academic Press.
12. Boshlang'ich ta'lim va kreativ rivojlanish
13. Sattorov O., Jo'raev R. Boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlar. – Toshkent: 2021.
14. Hamroyeva N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkurni rivojlantirish. – TDPU, 2020.
15. To'xtayev A. Kreativ kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari. – Monografiya.
16. Ochilova D. Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni. – OTM ma'ruzalar to'plami.
17. Sensor-didaktik o'yinlar va rivojlantiruvchi metodikalar
18. Montessori M. The Discovery of the Child. – Montessori Publishers.
19. Vigotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi. (O'zbekcha tarjima, Toshkent).
20. Elkonin D.B. Bola o'yin faoliyatining psixologiyasi. – Moskva
21. Babaeva D. Sensor rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent, 2018.
1. . Sh.M. Mirziyoyev. “Yoshlar – kelajagimiz poydevori”.
- Manba: president.uz (Rasmiy nutqlar bo'lim)